

“AVAZXON” DOSTONI VARIANTLARI TAHLILI



Feruzbek Normatov

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zMMSSI

“Doston ijrochiligi” kafedrası professori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20541674>

Annotatsiya. Turkum dostonlarning aksariyati folklorshunos olimlarimiz tomonidan yozib olingan, ularning asosiy qismi bosmaga tayyorlanib, ko‘p ming nusxada nashr etilgan, ba‘zi dostonlar esa bir necha bor ham bosilib chiqqan. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlarining genezisi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, nainki filologik ko‘lamda, balki ijtimoiy, axloqiy, falsafiy, estetik, etnografik va siyosiy nuqtai nazardan ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada “Avazxon” dostoni variantlari tahlili ilmiy tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon”, folklore, epos, versiya, variant, Xorazm, baxshi.

Аннотация. Большая часть былин серии записана нашими фольклористами, большая часть из них подготовлена к печати и издана многотысячным тиражом, а некоторые былины переиздавались несколько раз. Исследование генезиса и этапов развития эпосов серии «Гёроглы» имеет большое значение не только в филологическом плане, но и с социальной, нравственной, философской, эстетической, этнографической и политической точки зрения. В данной статье научно анализируется вариант эпоса «Авазхан».

Ключевые слова: «Гёроглы», «Авазхан», фольклор, эпос, версия, вариант, Хорезм, бахши.

Abstract. Most of the epics of the series have been recorded by our folklorists, most of them have been prepared for printing and published in thousands of copies, and some epics have been reprinted several times. The study of the genesis and stages of development of the epics of the “Gorogly” series is of great importance not only from a philological point of view, but also from a social, moral, philosophical, aesthetic, ethnographic and political point of view. This article scientifically analyzes the version of the epic “Avazkhan”.

Key words: “Gorogly”, “Avazkhan”, folklore, epic, version, variant, Khorezm, bakhshi.

“Avazxon” turkum dostonlari o‘zbek xalq dostonchiligida “Go‘ro‘g‘li” nomi bilan mashhur bo‘lgan dostonlar o‘rtasida ham soni, ham badiiy qimmatini jihatidan salmoqli o‘rinni egallaydi. Avazxonga bag‘ishlangan qahramonlik-romanik, ishiy-romanik dostonlar o‘zbek xalq dostonchiligida alohida turkumni tashkil etadi. Avazxonning bahodirligi va sarguzashtlari haqidagi dostonlar o‘zbek xalq dostonchiligida alohida turkumni tashkil etadi. Avazxonning bahodirligi va sarguzashtlari haqidagi dostonlar soni jihatidan hatto, “Go‘ro‘g‘li”ning o‘zi to‘g‘risidagi dostonlardan ham ko‘p. Buning sababi, bizningcha avvalo, obraz yaratish usullari, obrazlar talqini masalasi bilan dostonchilik an‘analari bilan bog‘liqdir. Ya‘ni Samarqand viloyati xalq dostonchiligida Avaz obrazi bilan Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari dostonchiligidagi

Avaz obrazi talqinini bir xil deb bo'lmaydi, ular o'rtasida muayyan farqlar bor. Shuningdek Avaz haqidagi ko'pchiligi Avaz obrazining xalq o'rtasida juda keng miqyosda ommalashib ketganligi bilan ham bog'liqdir. Haqiqatdan ham turkum dostonlari diqqat bilan kuzatilsa, ularda Avaz obrazi "Go'ro'g'li"dan keyingi ikkinchi o'rinda turganini ko'rish mumkin.

"Go'ro'g'li" turkumi dostonlari nafaqat o'zbek, balki Markaziy Osiyo, Kavkaz, Yaqin Sharq, Sibir, qisman Yevropa xalqlari orasida keng tarqalgan va xalqlarning sevimli dostoniga aylangan. Turkiy xalqlarning diniy-e'tiqodiy, tarixiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy ahvolini yoritish jihatdan bu turkum dostonlar o'zbek xalq og'zaki ijodida ham alohida o'rin tutadi. Ularda el va elat, davlatchilik siyosati, e'tiqod, urf-odat, an'ana va qadriyat, qon-qarindoshlik, or-nomus, mardlik va shijoat yuksak pardalarda kuylangan. Shu bois "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarini turkiy xalqlarning mushtarakligi, bir urug'-avlod, bir bo'g'inga mansublik, xususan o'zbek-turkman xalqlari tarixi, uning dunyo hamjamiyatidagi o'rni, o'ziga xosligi va mavqeini ko'rsatuvchi mental asar, deyish mumkin. Ehtimol "G'o'ro'g'li" turkumi dostonlari baxshilar epik repertuarining asosini tashkil etishining sabablaridan biri ham shundadir. Bu dostonlar ijrochiligi bugungi kunda ham yoshlarni milliy ruhda tarbiyalash, ajdodlar jasoratidan faxrlanish, e'tiqodda sobit bo'lish, iymon va vatan birbutunligini anglashga yordam berishi, shubhasiz. "Go'ro'g'li" dostonining Sharqiy versiyalarida qahramonning g'ayritabiiy tarzda tug'ilish motivi asosiy planga chiqadi va bu motiv talqini G'arbiy versiyalardan keskin ajralib turadi. Doston genezisi va tadrijiy bosqichlarini tadqiq qilgan Sh.Turdimov asosiy e'tiborni ushbu motivga qaratadi va "Go'ro'g'li" dostonining tub asosini o'lib tiriluvchi tabiat kuchlari haqidagi mavsumiy mif bilan bog'laydi[1, 150-b].

Shu o'rinda o'zbek folklorshunosligida "Go'ro'g'li" dostonlarining paydo bo'lish davri haqida aytilgan asosiy fikr va xulosalarga qisqacha to'xtalib o'tish zarur. Avvalo, barcha folklorshunoslar "Go'ro'g'li" dostonlarining Sharqiy versiyalari G'arbiy versiya asosida paydo bo'lgan, degan fikr tarafdori edilar. Lekin keyingi davrda akademik To'ra Mirzayev va folklorshunos Sh.Turdimovlar bu fikrga qarshi ikkinchi bir fikrni ilgari surishmoqda. Xususan, T.Mirzayev "Hikoyati Go'ro'g'li sulton" kitobiga yozgan so'zboshisida "Go'ro'g'li" turkumi dostonlarida tasvirlangan hayot tarzi bu xashamatli epos "Kitobi dadam Qo'rqu" va "Alpomish" dostonlaridan keyin XI – XII asrlarda O'rta Osiyoda qadimiy badiiy zaminga (o'g'uz-turkman, o'zbek-qipchoq kabi) tayanib yaratildi, keyingi bosqichda eposning ozarbayjon-o'g'uz asosida "tarixiylashib" borganini ham inkor etish mumkin emas, degan qarashni olg'a suradi[2, 17-b]. Sh.Turdimov esa "Go'ro'g'li" dostonining yadrosi, syujeti va obrazlar tizimining mifologik hamda tarixiy asoslari qadim-qadimdan Turkiston kengliklarida yashab kelgan ajdodlarimizning tasavvurlari, dunyoqarashlariga bog'liq sak, massaget va o'g'iz epik an'analari asosida eramizdan avvalgi ming yilliklarda yaratilib, bosqichma-bosqich sayqal topib, to'liq badiiy-estetik sathga o'tdi. Arxaik eposning navbatdagi talqinlaridan bir shoxobchasi Markaziy Osiyodan Kavkaz va Kichik Osiyoga ko'chgan o'g'iz qabilalari bilan u hududlarga ham tarqaldi, yangilandi. So'nggi talqinlar o'zaro madaniy-adabiy aloqalar natijasida Markaziy Osiyo versiyalariga ham ma'lum ta'sirini o'tkazdi[2, 152-b]. deb yozadi.

O'zbek xalq dostonchiligida mashhur bo'lgan "Avazxon", "Avazning arazi", "Avazning uylanishi", "Qunduz bilan Yulduz", "Bo'tako'z", "Intizor", "Zulfizar", "Gulixiromon", "Malikai ayyor", "Balogardon", boshqa shu kabi dostonlar "Avazxon" biografik turkumligini tashkil etadi. Bu o'rinda shuni aytish lozimki, "Avazxon" biografik turkumiga kiruvchi dostonlarning soni nechta ekanligini aniq aytish qiyin. Avazxonning nomi bilan bog'liq mazkur doston syujetlarining aksariyati o'zbek xalq shoirlarining ijodiy mahsuloti hisoblanib, ularda asosan shu turkum dostonlarining bosh qahramoni – Avazxonning epik biografiyasi yoritiladi. Boshqacha qilib

aytganda, bu dostonlarda o'zbek xalqining sevimli qahramoni – Avazxonning Go'ro'g'li tomonidan Chambilga olib kelishidan tortib uning bahodirlik safarlariga qadar hikoya qilinadi. Bu dostonlarning ayrimlarida Avazxonning vatani – Chambil uchun kurashi kuylansa, ba'zilarida uning uzoq ellardan sevib qolgan qaylig'ini olib kelib, unga uylanishi tarannum etiladi ("Mashriqo", "Zulfizar", "Intizor", "Qunduz bilan Yulduz", "Malikai ayyor" va boshqalar). Shuning bilan birga "Avazxon" turkuni dostonlarida "Go'ro'g'li" turkumining boshqa ko'pgina dostonlaridagi singari ijtimoiy voqealar asosida xalqning turmushi, hayoti, orzu-umidi, el-yurtini ichki va tashqi dushmanlardan himoya qilish yo'lidagi kurashi, qahramonlik, insoniylik, sadoqat to'g'risidagi qarashlari o'z ifodasini topgandir. Eng muhimi, turkum dostonlari o'zbek xalqining ijtimoiy hayot voqealarini aks ettirgan xalqchil asarlardir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Avazxon" biografik turkumiga kirgan dostonlarning hammasini sistemali ravishda bir vaqtda yaratilishi mumkin ham emas. Aslida bu dostonlar turmush, ijtimoiy ehtiyoj taqozasi bilan turli vaqtlarda yaratilgandir. "Go'ro'g'li" dostonlari Xorazm versiyasining o'ziga xos xususiyatlardan biri – uning qo'lyozma shaklida ham ommalashganligidir. O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida Xorazm "Go'ro'g'li" eposining "Go'ro'g'li sulton", "Dostoni Go'ro'g'li", "Ravshanbek" kabi o'nlab qo'lyozma nusxalari mavjud bo'lib, ularda ikkitadan o'n ikkitagacha doston berilgan. "Ravshanbek". Eposning ko'plab shaxobchalarini qamrab olgan ushbu qo'lyozma to'liq nusxalardan biridir. U Jig'olibek o'g'li Odibek sulton zaifasi qabrini borib ko'rishi voqealari bilan boshlangan. "Go'ro'g'lining tug'ilishi". Ushbu qo'lyozma Xorazm baxshilari uchun asosiy manba – "Baxshi kitob"laridan biri bo'lgan. Unda ko'plab epik syujetlar, personajlar va lavhalar saqlanib qolgan. Go'ro'g'lining o'lgan onadan dunyoga kelishi motivining asosida "tabiatning qayta tirilishi" tushunchalari turadi[3, 72-79-b]. "Go'ro'g'lining bolaligi" shaxobchasida tasvirlanishicha, Jig'olibekni Xunkorga yomonlab ko'zini o'ydiradilar. Go'ro'g'li Ujatog'da makon qiladi va bu makon keyinchalik Chambilbel deb ataladi. Abdullo qalandar Go'ro'g'lini o'n besh yoshida podsho bo'lishini bashorat qiladi: Avval-oxirni sultoni bir xudodin aylanay, Zohirbotinni sultoni podshohdin aylanay [4].

Og'zaki variantda mazkur she'r "o'rgilay" radifi bilan berilgan [5, 30-b]. "Arab Rayhonning Gulandomni olib qochishi" shaxobchasida tasvirlanishicha, Rayhon arab Gulandomni olib qochib ketadi. Mazkur shaxobcha 3150-inventar raqamli qo'lyozmada 9590 va 1647-inventar raqamli qo'lyozmalar hamda og'zaki variantga qaraganda batafsil berilgan. "Go'ro'g'lining otiga ega bo'lishi". Boshqa qo'lyozmalarda uchramaydigan bu shaxobchada Go'ro'g'lining o'z otiga ega bo'lishi tasvirlangan. Qo'lyozmalardagi Go'ro'g'lining otiga ega bo'lishi syujeti qadimiy inonchlar asosida tasvirlangan. G'irotning tug'ilishi bilan bog'liq epik motivlar genezisi sakmassaget qabilalari arxaik eposidagi jangovar otlar obrazining badiiy evolyusiyasi asosida kelib chiqqan[6, 15-18-b]. "Go'ro'g'li" dostoni qo'lyozma nusxasida otga ega bo'lish haqidagi epik syujet mavjudligi qo'lyozmalarning og'zaki variantlaridan farqini belgilab berishi bilan birga, turkumlikning og'zaki ijroda unutilib ketgan uzvlarini aniqlashda muhim manba hisoblanadi. "Go'ro'g'lining Isfahondan o'q-yoy va qurolga ega bo'lishi". Go'ro'g'li Shohimardon va eranlardan duo olib, Isfahon qal'asiga borib, qurol do'konida Imar va Kimar degan ikki bobo yasagan o'q-yoyni olib qaytadi. 3150-raqamli qo'lyozmadagi ushbu o'q-yoyga ega bo'lish motivi dostonning og'zaki variantlarida uchramaydi yoki boshqa shaxobchalarga qo'shib yuborilgan. "Go'ro'g'lining o'z yigitlariga ega bo'lishi" shaxobchasida Go'ro'g'li Kalat tog'ida otasi Odilbekdan qolgan qirq yigitni topadi va ular bilan birgalikda ota-bobolarining xunini oladi. Mazkur shaxobcha boshqa birorta qo'lyozmada va og'zaki variantlarda berilmagan. "Go'ro'g'lining uylanishi" shaxobchasida Shohimardon Go'ro'g'lining tushiga kirib, Ko'kbillur tog'idagi G'abfor shahrida Jahonpodshohning qizi og'a Yunus pari haqida xabar beradi. Unda qirq

kishining kuchi, yuz odamning aqli, yuz parining husni borligini aytadi. Bu shaxobchanning qo‘lyozma va og‘zaki variantidagi she‘riy qismlar qiyosiy tahlil qilinganda 3150-raqamli qo‘lyozmada berilgan she‘riy matn og‘zaki variantdagidan ko‘ra badiiy jihatdan mukammalligi ma‘lum bo‘ldi. “Or olish”. Mazkur shaxobchanning barcha variantlarida Rayhon Arabdan o‘ch olish tasvirlangan. Og‘zaki variantda Go‘ro‘g‘lining yangasi Gulandom deb berilgani holda Rayhon arabning qizi 3150, 9590 va 1647-raqamli qo‘lyozmalar va og‘zaki variantda Bibijon deyiladi. Mazkur shaxobcha 1647-raqamli qo‘lyozmada mazmunni saqlagan holda ixchamlashtirilgan. “Avazning keltirilishi”. Mazkur doston asosida Go‘ro‘g‘li tomonidan Xunkorshoh hukm surayotgan Vayangan shahridagi Bulduruq qassob va Guloyimning o‘g‘li Avazxonning olib kelinishi va asrab olinishi voqealari turadi. Bu shaxobcha “Go‘ro‘g‘li” eposining Yaqin Sharq va O‘rta Osiyo (uyg‘ur versiyalari ham shunga kiradi) turkiy versiyalari ichida og‘zaki, toshbosma va qo‘lyozma nusxalarda keng tarqalgan. Ushbu epik syujet xalq ertaklaridagi sinov motivi asosida shakllangan.

“Avazning uylanishi”. Ushbu epik syujet Go‘ro‘g‘li tomonidan Gurjistondan Lakashohning qizi Gulruhni olib kelib, Avazxonga nikohlab berilishi voqealarini o‘z ichiga oladi. Doston 9590-raqamli qo‘lyozmadagina berilgan. “Arab tang‘an”. Mazkur dostonning o‘zak syujeti 9590-raqamli qo‘lyozmada berilgan bo‘lib, Lakashohning Arab Rayhon degan yuganchisi Go‘ro‘g‘lini Avja tog‘ida bog‘lab, tyaning beliga bog‘lab olib ketadi. Shunda Avazxon, Bolijon va Safarko‘sa bilan otlanib, Go‘ro‘g‘lini ozod qilishadi. Mazkur doston syujetining negizida qadimdan O‘rta Osiyo xalqlari folklorida mavjud bo‘lgan “bahodirlar kurashi” mavzusi yotadi. Bu epik syujetning arxetipik namunalari o‘zbek xalq eposi tarixining sak-massaget qabilalari davrida shakllangan. “Qirq minglar”. Bu dostonda Lakashohning Go‘ro‘g‘lini mahv qilish uchun qirq ming lashkar bilan yurish qilishi tasvirlangan. “Qirq minglar” dostoni faqat Xorazm “Go‘ro‘g‘li” dostonlari tarkibida mavjud bo‘lib, ushbu epik syujet negizida Go‘ro‘g‘lining Bolibek bilan jangi voqealari turadi. “Avazning Vayangonga ketishi”. Dostonda Avazxonning Vayangon shahriga ketishi va Go‘ro‘g‘lining ustiga qo‘shin tortib kelishi voqealari tasvirlangan. Dostonda Og‘a Yunus pari tirnog‘iga qarab, Avazjonning qo‘shin bilan kelayotganligini biladi va Go‘ro‘g‘lini xabardor qiladi. Bu motiv qadimiy tasavvurlar mahsuli bo‘lib, xalqimizda soch kabi tirnoq ham magik xususiyatga ega, deb tasavvur qilingan. “Xirmondali”. Mazkur doston syujeti o‘zagini Xirmondalining kuyovlikka talabgorlar bilan polvonlik va baxshichilikda kuch sinashish voqealari tashkil etadi. Zero, kelin bo‘ladigan qizning “kuyov bilan yakkama-yakkka kurash tushishi Xorazmda yashagan shak (sak) qabilalari urf-odatiga aloqador bo‘lib”[7, 189-b], bu odat pahlavon qizlar bilan bog‘liq epik syujetlarning shakllanishiga asos bo‘lgan. “Xirmondali” dostoni syujetining genezisi o‘zbek eposi tarixining sak-massaget folklori davriga borib taqaladi. “Xirmondali” dostoni syujetining shakllanish jarayoni uch bosqichdan iborat: a) jangovar qizlar haqidagi epik syujetning sak-massaget folkloridagi talqini; b) islomiy agiografik manbalar, og‘zaki hikoya va rivoyatlar asosida shakllangan Oshiq Oydin bilan bog‘liq epik syujet talqini; v) jaloliylar bilan bog‘liq tarixiy voqealarning badiiy tasvirlanishi natijasida yuzaga kelgan “Go‘ro‘g‘li” epik syujeti. “Avaz mohitobon” dostoni. 9590-raqamli qo‘lyozmada keltirilgan bu epik asar ekspozitsiyasiga ko‘ra “Xirmondali” dostoniga o‘xshab ketadi. Unga ko‘ra Gurjiston shahrida Avaz mohitobonning husn-jamolda tengi yo‘q Gulandom ismli xotini Go‘ro‘g‘lini ta‘rifini eshitadi va uni xat orqali chaqirtirib oladi. Mazkur doston eposshunoslikda haligacha qayd qilinmagan yangi epik syujet asosiga qurilgan. “Bozirgon” dostoni. Mazkur doston syujeti asosida olamdagi ezgulik va yovuzlik kuchlarining kurashi haqidagi dualistik qarashlarga aloqador mifologik tasavvurlar turadi. S.Ro‘zimboyev dostonni eposning ozarbayjon versiyasidagi “Go‘ro‘g‘li va Erhasan” dostoniga hamohangligini qayd etadi[8, 81-82-b].

Dostonning qo‘lyozma variantlari og‘zaki variantlarda mavjud bo‘lgan qaydagi she‘r bilan boshlangan: Bir yigit kelmushdur Chambilbelindin, Kelib Gurjistona tushdi bir sunniy, Qalandar bo‘lubon kechdi sarindin, Qilichindin qonlar sochdi bir sunniy[9, 11-b]. Dostonning og‘zaki variantlarining barchasi ikkinchi she‘r “G‘am yemagil, Go‘zalshohim” bilan boshlanadi. Dostonning 1960-yilda J.Abdukarimov tomonidan Norboy baxshi Qo‘shekenovdan yozib olingan varianti qo‘lyozma nusxaga birmuncha yaqin keladi. Qo‘lyozma dostonidagi e‘tiborli motivlardan biri Oysultonning tush ko‘rishi motividir: “Bozirgonning bir singlisi bor edi, Oysulton otlig‘. Bir kecha tush ko‘rdi. Og‘asining boshig‘a bir qush qo‘nib boshini cho‘qib, ko‘zin(i) o‘ya boshladi”[10]. Ushbu tush motivi qadimiy inonchlar orqali shakllangan. “Kampir” dostoni. G‘irotning o‘g‘irlanishi va uni Go‘ro‘g‘li tomonidan qaytadan qutqarib olib kelinishi syujeti Xorazm dostonlarida “Kampir”, “G‘irotning o‘g‘irlanishi” nomlari bilan yuritiladi. Eposning ozarbayjon versiyasida bu syujet “Hamzaning G‘iroti abarmasi” deb nomlangan bo‘lib, unda Go‘ro‘g‘lining G‘irot va Durot nomli ikki oti borligi aytiladi. Bu xalq dostonlaridagi qo‘shaloqlashtirish usulining natijasidir. Qahramonning oti mifologik personajlar tomonidan o‘g‘irlanishi dunyo xalqlari eposining an‘anaviy motivlaridan biri bo‘lib, ana shu o‘g‘irlangan narsa (ot yoki qush) qahramon muhiti uchun yuzaga kelgan “yetishmovchilik”ni bartaraf etish maqsadida epik qahramonning “o‘zga olam”ga safari boshlanishi uchun asos bo‘ladi. Badiiy tafakkur taraqqiyoti davomida mifologik obrazlar bajargan bu vazifa keyinchalik antropomorf qiyofali personajlar zimmasiga ko‘chirilgan.

Xulosa. Yuqoridan ko‘rib o‘tganimizdek Xorazm dostonchiligida Go‘ro‘g‘li turkumining qirqdan ortiq shaxobchasi bo‘lib, ulardan ko‘pchiligi hozirgi davrgacha ijro qilib kelinmoqda. “Go‘ro‘g‘li” turkum dostonlari qo‘lyozma va o‘g‘zaki badiiy ijrolari mukammal ishlangan bo‘lib, uning nasriy qismi bilan she‘riy qismi o‘zaro mutanosib holda berilgan. Doston, asosan, baxshilar repertuarida yashab kelganligi uchun uning leksikasi mumtoz adabiyotga xos elementlarga boy. Dostonda forsiy, arabiy o‘zlashmalar ancha faol ishlatilgan. Biroq, asar o‘zining xalqona uslubini saqlab qolgan. Doston tilini badiiy-estetik tomondan bezovchi yana bir vosita ramzlardir. Ramzlar negizida ham o‘xshatish tamoyili yotsa-da, unda ichki mantiqiy solishtirish asosiy o‘rinni egallaydi. Rang-barang mavzularga ega “Avzxon” biografik turkumiga mansub barcha dostonlarda xalqning turmushi, orzu-umidlari, el-yurtni tashqi dushmanlardan himoya qilish yo‘lidagi kurashlari, qahramonlik, insoniylik, sof sevgi, vafodorlik to‘g‘risidagi qarashlari o‘z ifodasini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Turdimov Sh. “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining genezisi va tadrijiy bosqichlari. – Toshkent: Fan, 2011.
2. Hikoyati Go‘ro‘g‘li sulton. – Toshkent: Adabiyot uchquni, 2013.
3. Turdimov Sh. Go‘ro‘g‘li” dostoni va quyosh topinchi bilan bog‘liq tasavvurlar // O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 2011. – 1-son.
4. O‘zR FA ShI Qo‘lyozmalar fondi. Inv.№3150-I. “Ravshanbek” dostoni.
5. Go‘ro‘g‘li. Xorazm dostonlari. – Urganch, 2004.
6. Jumanazarov U. O‘zbek folklori va tarixiy voqelik. – Toshkent: Fan, 1993.
7. Tolstov S.P. Qadimiy Xorazm madaniyatini izlab. – Toshkent, 1964. –
8. Ro‘zimboev S. “Bozirgon” dostonining qo‘lyozma varianti va uning boshqa turkiy xalqlar variantlari bilan o‘zaro aloqasi // Adabiy meros. – Toshkent, 1981.
9. Professor .S.Ro‘zimboyev shaxsiy arxivida Niyozjon Musayevadan yozib olingan qo‘lyozma..
10. O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi. Inv.№9590.

11. AXMEDOVA, O. O ‘ZBEK MAROSIM-UDUMLARINING ETNOHUDUDIY XUSUSIYATLARI.
12. Ахмедова, О. М. (2010). Освещение фольклорных религиозных мотивов в средствах массовой информации (на примере печати и радиовещания Узбекистана). *Филологические науки. Вопросы теории и практики*, (3), 35-38.
13. Avazova, M. E., & Axmedova, O. M. (2021). TOSHKENT VILOYAT OHANGARON TUMANI YOR YOR QO’SHIQLARINING O’ZIGA XOS POETIKASI. *Oriental Art and Culture*, 2(4), 196-201.
14. Akhmedova, A. (2021). Historical syncretism of folklore and media. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(1), 335-340.
15. Ахмедова, О. (2026). Соотношение традиции и импровизации в узбекском народном эпосе: Interplay of Tradition and Improvisation in Uzbek Folk Epic. *Journal of national culture*, 2(1), 150-156.
16. Qodirov, M. R., & qizi Aliasqarova, S. R. (2025). THE IMPORTANCE OF SPEECH IN BAKHSHI. *Bulletin news in New Science Society*, 2(6), 11-15.
17. Абдурахмонов, Р. Ю., & Курбанова, У. (2020). Хоразм фольклор и жрочилик санъати. *Oriental Art and Culture*, (II), 31-35.
18. Ахмедова, О. М. (2019). ЗНАНИЯ, ОБЫЧАИ И ОБРЯДЫ О ПРИРОДЕ И ВСЕЛЕННОЙ. *Наука и мир*, 2(4), 28-31.
19. Normurodovich, S. B. (2024). HORAZM DOSTON IJROCHILIGIDA NAG ‘MALARNING AHAMIYATI. *Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 1(10), 133-136.
20. Safarov, B. N. (2023). DOSTON IJROCHILIGIDA SOZ VA SO ‘Z UYG ‘UNLIGI. *Oriental Art and Culture*, 4(1), 84-89.
21. Safarov, B. N. (2024). JANUBIY O ‘ZBEKISTON DOSTON IJROCHILIGIDA NAG ‘MALARNING O ‘RNI VA AHAMIYATI. *Inter education & global study*, (10), 529-535.
22. Normurodovich, S. B. (2024). JUFT TORLI CHOLG ‘U SOZLARIDAGI O ‘NG QO ‘L ZARBLARINING O ‘ZARO BOG ‘LIQLIGI VA FARQLI JIHATLARI. *Бюллетень педагогов нового Узбекистана*, 2(6), 75-79.
23. Safarov, B. (2022). Do ‘mbira sozining tuzilishi, imkoniyatlari va doston ijrochiligida tutgan o ‘rni. *Oriental Art and Culture*, 3(2), 793-798.
24. Mavlonbekova, N., & Abduraxmonov, R. (2022). TURKMAN BAXSHISI “SEVGI VA ISHQ MULKINING SHOHI” MULLANAFASNING “ZUXRA VA TOXIR” DOSTONI TAHLILI. *Oriental Art and Culture*, 3(4), 408-412.
25. Hayitov, Z. (2021). The place of drum instruments and songs in the art of Bakhshil. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 73-78.